

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

JOPAPS



JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Volume 1, Issue 4

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 4-СОҢ

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-4>

Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Педагогика фанлари

MADIXONOVA Mubina Fayzullo qizi
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

MUYDINOVA Madina Alisherovna
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7809072>

МАКТАВ, ИНФОРМАТИКА FANIDAN O‘QUVCHILAR BILIMINI TEKSHIRISHNING SHAKLLARI VA METODLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktablarda informatika fanini o‘qitishdan o‘quvchi yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy texnologiyalar va metodlar orqali oshirish va maktab sharoitida informatika o‘qitish samaradorligini tekshirish.

Kalit so‘zlar: iSpring QuizMaker, interfaol metod, axborot kommunikatsiya, ta’lim, raqamli texnologiya, zamonaviy o‘qitish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются знания и навыки учащихся по обучению информатике в школе с помощью современных технологий и методов, а также эффективность обучения информатике в школьных условиях.

Ключевые слова: iSpring QuizMaker, интерактивный метод, информационная коммуникация, образование, цифровые технологии, современное обучение.

ANNOTATION

In this article, the knowledge and skills of students from teaching computer science in schools are examined through modern technologies and methods, and the effectiveness of teaching computer science in school conditions.

Key words: iSpring QuizMaker, interactive method, information communication, education, digital technology, modern teaching.

Bugungi kunda mamlakatimizda inovatsion va ilmiy salohiyatni rivojlantirish yo‘lida harakat shiddat bilan ortib borayotgan bir davrda yosh avlodning tarbiyaviy, ma’naviy – axloqiy, innovatsion ilmiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, o‘quv jarayonlariga yangi – yangi o‘qitish metodlari, texnologiyalari va innovatsiyalarni tadbiq etish bugungi kunimizning talabiga aylanib bo‘ldi. Barcha ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning ta’lim berish va o‘qitish samaradorligini oshirish, olib borilayotgan dars tushunarli va oson bo‘lishi uchun zamonaviy texnologiya va metodlarda foydalanib dars jarayonlarini tashkil qilish orqali sifatli ta’lim bermoqdalar. Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim va Oliy ta’lim muassasalarida ham sifatli ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab qo‘yildi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni ertangi kelajagini bugundan boshlab qurishi uchun ta’lim tizimini yanada takomillashtirish choralari ko‘rilmoqda.

Yer yuzining barcha nuqtalarida axborot makonining globallasuvi, ochiqligi va ommaviyligi axborot kommunikatsiyaning kuchayishi integratsiyalashgan ta'lim tizimida shu ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarning kasbiy va ijodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'lim sohasidagi rivojlanish tendensiyasi axborotlashgan jamiyatda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini kengroq joriy qilish ta'lim sohasining barcha sohalariga bevosita va bilvosita tadbiiq etish, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari xususiy va maxsus internatlardagi axborot kommunikatsiyalariga bo'lgan qiziqishni, talab va takliflarni oshirish bilan bir qatorda, ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llaganda o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi [1].

Ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni interfaol usullarda tashkillashtirish uchun ma'lum bir shart – sharoitlar mavjud. Interfaol so'zi inglizcha “Interakt” so'ziga mos kelib, “Inter – o'zaro”, “akt – ish ko'rmoq, ishlamoq” degan ma'nolarni anglatadi. Interfaol o'qitish – muloqotli o'qitish bo'lib, jarayonning borishida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ta'sir amalga oshiriladi. Interfaol o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Shunday ekan, axborot kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish, pedagog va o'quvchilarning orasidagi o'zaro erkin muloqotni ta'minlash, mantiqiy fikrlash va topqirlik darajasini bilish, bundan tashqari axborotlashgan davlat va jamiyat siyosatini yo'lga qo'yish oddiy aholi orasida axborot erkinligini targ'ib etish va ularning samaradorligini yanada oshirish, ommaviy axborot vositalari, internet manbalari va foydali manbalar bilan boyitilgan bir qator dasturlarning ishlab chiqarilishi va foydalanish uchun zarur va foydali modellarni tadbiiq etishning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash, darslarni interfaol tarzda tashkil etish, o'quvchilarga katta yordam beradi. O'qituvchi uchun darslarni tashkil qilish, uni o'tish, ko'rsatish, tushuntirish, mustahkamlash, nazorat qilish va baholash kabi amallarni bajarishda raqamli texnologiyalarni o'rni beqiyos hisoblanadi. Darslarda raqamli texnologiyalarni qo'llab, axborot kommunikatsiya texnologiya vositalaridan foydalanish o'quvchi uchun ham katta ahamiyatga ega. Zamonaviy, yangi texnologiyalarni qo'llab tashkil etilgan darslar o'quvchini diqqatini o'ziga jalb qiladi, qiziqishini oshiradi, u tomon yetaklaydi va yuqori natijalarga erishishga olib keladi [2].

Darslarda raqamli texnologiyalarni qo'llash, axborot kommunikatsiya texnologiya vositalaridan foydalanishdan maqsad: darslarni yaxshi tashkil etish, yuqori natijalarga erishish, o'quvchilar bilimini oshirish, ularni zamon ruhida tarbiyalashdan iborat.

Darslarda o'quvchilar bilimini nazorat qilish, natijaga erishish jarayonini baholash oldimizda turgan eng mas'uliyatli vazifalardan biridir. O'qish-o'qitish boshlangan vaqtlardan to hozirga qadar o'quvchilar bilimini baholashning qator usul va metodlari ishlab chiqilgan. Qaysidir o'qituvchi og'zaki, qaysidir yozma yoki test shaklida nazoratlar olib o'quvchini baholashga odatlanib qolgan. Ammo hozirgi kunda axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgub bir davrda maktablarda o'quv darsliklarini o'qitishda bu usullardan foydalanish rivojlanib kelayotgan yoshlarning bilim darajasini to'g'ri baholay olmasligi yoki o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini to'g'ri shakllantira olmasligi mumkin. Axborot kommunikatsiyalari davrida o'quvchilar bilimini har tomonlama to'g'ri baholash va fanlarni mukammal o'zlashtirishi uchun zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish ayni muddao bo'lmoqda.

Maktablarda o'quvchilarni informatika IT sohalariga qiziqtirish va yo'naltirish fanini o'qitish ularni bilim darajasini to'g'ridan to'g'ri internet manbalari orqali tekshirishni tadbiiq etish usullari yo'lga qo'yilmoqda. Lekin biz oldin ham qo'llab kelgan metodlarimiz orqali o'quvchining bilim darajasini tekshiradigan bo'lsak, test yozma nazorat yoki og'zaki nazorat qilinadigan bo'lsa bu jarayonda shaffoflik va aniqlik, o'quvchi fikrida xulosalilik va mazmun jihatidan mujmallik paydo bo'ladi. Bundan tashqari o'quvchi mavzu yuzasidan beriladigan savollarga aniq va lo'nda javob o'rniga mavzu mohiyatini yoritib beradi, bu esa o'quvchining bilim salohiyatiga ta'sir etmay qolmaydi.

Zamonaviy dasturlar va metodlardan foydalanib o'tkazilgan monitoring jarayonlarida esa o'quvchi fikri aniq va tez bayon etiladi. Aslida nazorat testlari o'quvchining bilimini, o'zlashtirish sifatini tezkor tekshirish, xatolarni o'rnida tuzatish, bilim sohasidagi bo'shliqlarini aniqlash va uni bartaraf etishga yordam berishi kerak. Darslarda testlardan foydalanishdan maqsad:

- ish unumdorligini oshirish;
- ish faoliyatini baholash;
- o'quvchining bilimini tekshirish va baholash;
- xolislikni oshirish;
- baholash uchun aniqlikni oshirish (mavhumlikdan qochish);
- o'rganish uchun qo'shimcha motivatsiya uyg'otish;
- o'quvchilarni fikrlash xususiyatini aniqlash;
- o'quv jarayonini samaradorligini oshirish va boshqalar.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda bir qator dasturiy maxsulotlar yaratilib kelinmoqda. Bu dasturlar orqali maktab yoshidagi o'quvchilarni darsga qiziqishini oshirishga, fikrini jamlay olishga va bilim olish darajasini oshirishga imkon beradi. Fanlarni o'rganish uchun va o'quvchilar olgan bilimlarini har qanday joyda ham qiynalmasdan o'z bilimini tekshirishi mumkin bo'ladi. Lectora va Lectora Online QuizMaker, iSpring Dialog Trainer, Potato Rush, Quiz App va boshqa shu kabi dasturlar yordamida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash mumkin. Yuqoridagi dasturiy ilovalarning afzallik tomonlari juda ko'p bo'lib sifatli va foydali hisoblanadi.

Informatika o'qitishda samarali usullardan biri bu iSpring QuizMaker dasturidir. iSpring QuizMaker dasturi juda qulay ishlangan bo'lib, istalgan fan o'qituvchisi bir soatda o'rganish imkoniyati mavjud. Ushbu iSpring QuizMaker dasturi orqali 11 turdagi anketa savollari va 11 turdagi test topshiriqlarini yaratish mumkin. Bu o'n bir turdagi test topshiriqlari orqali o'quvchining bilimini har tomonlama baholashga imkon yaratadi. O'quvchilar bilimini oqilona baholash uchun ushbu 11 turdagi testlardan foydalanib nazorat testlarini tayyorlash vaqtida o'qituvchidan yuksak mahorat talab etadi. Aks holda boshqa testlardan farqi qolmaydi [3].

Interfaollik faqat testlarni mustaqil dastur shaklida yoki onlayn testlardan foydalanganda o'z aksini topadi. Bunday testlarning afzalliklari:

- vaqtni tejaydi;
- variantlar sonini avtomatik ko'paytiradi;
- javoblarni o'zi tekshiradi va tezda yetkazadi;
- sinov natijalarini saqlash qulay;
- testni o'quvchini o'zi qulay vaqtda boshlash imkoniyati mavjud.

iSpring QuizMaker dasturidan foydalanib quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- test variantlarni tanlashni boshqarish;
- test sonini belgilash;
- urinishlar sonini va vaqtni belgilash;
- javoblarning to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab o'tishni rejalashtirish;
- javoblarni o'z o'rnida ko'rsatib izohlar qoldirish va ko'rsatmalar berish;
- savol yoki javoblar uchun rasm, formula, multimedia va flash animatsiyalardan foydalanish;
- to'g'ri javoblarga ballar berish va noto'g'rilardan ballar olish.

iSpring QuizMaker dasturining ta'lim sifatini oshiradi, shuningdek darsga tarqatmalar yoki test savollarini tuzish uchun ortiqcha vaqt sarflamaydi. iSpring QuizMaker dasturida fan yuzasidan turli o'quv materiallarini joylashlari mumkin bo'ladi. O'quvchilarga ham bu jarayon qulaylik tug'diradi. Dars jarayoniga qatnasha olmagan o'quvchi ham yo'lda ham uyda ham bemalol mavzuni o'zlashtirishi mumkin. Darsdan tashqari o'zini ham o'tilgan mavzular yuzasidan test yoki o'qituvchi tomonidan dasturga joylashtirilgan materiallardan o'z bilim darajasini tekshirib borishlari mumkin. Bu dasturni aynan informatika fanini o'qitishda qo'llanilishi esa o'quvchining kompyuter bilan tezda do'st bo'lib olishini ham ta'minlaydi. iSpring QuizMaker dasturida informatika tushunchalarini joylash orqali bo'lajak dasturchilar uchun ayni muddao bo'lib hizmat qiladi. Dasturda yaratilgan testlar o'quvchining tez fikrlashga, fikrini tezda jamlab olishga, kompyuterdagi barcha buyruqlarni o'rganib olishga va xato qilmaslikka, hushyorlikni oshirishga, vatqga qarab ishlashga o'rgatadi.

Bundan tashqari iSpring QuizMaker dasturida yaratilgan testlarni SCORM yoki AICC standartlarini qoʻllab quvvatlaydigan har qanday masofaviy oʻqitish tizimlarida joylashtirish mumkin [4].

Bugungi kunda taʼlim sohasining barcha jabhalariga interfaol metodlar bilan bir qatorda kundalik com, hemis va shu kabi platformalar kirib keldi. Bu platformalarda dars mashgʻulotlari, oʻquvchilar davomati, oʻqituvchi pedagoglarning ish faoliyatdan naʼmunalar va shu bilan bir qatorda oʻquvchilar oʻz ustida ishlashi uchun testlar, savollar va boshqa materiallar joylab boriladi. Bu esa hozirgi kunda mamlakatimizda yosh dasturchi va ixtirochilarning koʻpayishiga sabab boʻlmoqda. Shuning uchun zamonaviy metodlardan va ilgʻor texnologiyalardan foydalanib ishlab chiqilayotgan ilovalar yoshlar eʼtiborini tortmoqda.

Bunday ilovalardan eng samaralisi boʻlgan iSpring QuizMaker dasturida tayyorlangan testlarni misol qilishimiz mumkin. iSpring QuizMaker dasturidan yaratilgan testlar va boshqa foydalanish uchun yaratilgan 11 ta nazorat uchun materiallarni Word daturida eksport qilish, qogʻoz variantida chiqarish mumkin. Testlarni tuzishda “testologiya” qoidalariga muvofiq, vaqtlarni toʻgʻri taqsimlab, javoblar uchun ballar ajratib, notoʻgʻri javoblar uchun ballar ayirish usullaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq boʻladi.

Chunki bu kabi tuzilgan testlar oʻquvchini bilmagan savollariga taxminiy javoblar qoʻyishdan tiyilishiga olib keladi. Bu oʻquvchini kelajakda oʻz ustida ishlashiga omil boʻladi. Axborot kommunikatsion va innovatsion texnologiyalar taʼlim mazmunini boyitadi, hamda oʻqitish shakli, usul va vositalarini yangilash vazifasini bajaradi. Taʼlim jarayoniga innovatsiyalarning kirib kelishi kompyuter texnologiyasining rivojlanishi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida taʼlim jarayonida elektron adabiyotlar va multimediali dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari, oʻquvchilarning motivatsiyasini oshirishda, fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishda hamda baholashda eng sodda va sifatli usul hisoblanadi [5].

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda oʻsib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib, tarbiyalash vazifasi muhimdir. Zamonaviy taʼlimda koʻplab ijobiy tendentsiyalar, maktab oʻquvchilarini oʻqitishda pedagogik yondashuvlar oʻzgaruvchanligi, oʻqituvchilar orasida ijodiy izlanish erkinligi, eng yaxshi xorijiy tajribadan foydalanish, pedagogik tizimni tanlash imkoniyati va hozirgi zamon talabiga mos boʻlgan dasturiy vositalar yordamida oʻqitish samaradorligini oshirish va dars jarayonlariga oʻquvchilarni toʻliq qamrab olish talab etilmoqda. Bu talabga koʻra maktablarda tizimli ishlar olib borilib, dars jarayonlari toʻliq kompyuterlashtirilgan muhitda tashkil etilmoqda.

Bu esa informatika fanining yana bir oldiga qoʻygan katta yutugʻi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Informatika oʻqitishda qoʻllanilayotgan usullar va metodlarning qanchalik koʻp qoʻllanilsa va bu metodlardan amaliy tarzda faol hayotga tadbiq etilsa, oʻquvchining ham oʻqituvchining ham eng katta yutugʻi boʻladi. iSpring QuizMaker dasturi esa bugungi kun talabini qondira oladigan dasturiy taʼminot hisoblanadi. Bu dastur kelajak yoshlarimiz uchun foydali interfaol qoʻllanma boʻlib hizmat qiladi. Dastur orqali oʻz bilim darajalarini oshirib yurtimizning rivojlanishiga oʻz hissalarini qoʻshadilar [6].

IQTIBOSLAR

1. O‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash yo‘llari. Uslubiy qo‘llanma. Akademik S.S.G‘ulomov umumiy rahbarligi ostida. – T.; TDIU 2005. 90 b,105 b.
2. A. A. Abduqodirov, A. G‘. Hayitov, R. R. Shodiev «Axborot texnologiyalari» T, “O‘qituvchi”, 2002 y.
3. Ismatilla Isoqov, Sindorqul Ibragimovich Qulmamatov. “Informatikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar”. Ma’ruza matnlari.
4. <http://www.ispring.ru/ispring-quizmaker>
5. S. S. G‘ulomov va boshqalar «Axborot tizimlari va texnologiyalari» T.– «Sharq», 2000 y.
6. U.X..Xayitov. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida axborot kommunikatsiya texnologiyalari darajasi. Uzluksiz holat texnologiyasi. AQSh-2020. Jild: 63-soni: 6. B. 478-489.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 4-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz